XALQ DEPUTATLARI SHOVOT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-18-139-12-177-K/25 Shovot tumani

Shovot tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-105-sonli Qonuniga va xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi “Xorazm viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-16-151-12-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq hamda Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 29-dekabrdagi 04-7-09/14135-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Shovot tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli qonuni hamda Xorazm viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi “Xorazm viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-16-151-12-0-K/25-sonli qarorlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq Shovot tumani budjetining 2026-yilgi daromadlari 150 687,1 million.so‘m va xarajatlari esa 150 687,1 million.so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek, Shovot tumani budjetining shaxsiy g‘azna hisob varag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 921,0 million.so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun 1 817,9 million.so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan

vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (S.Saidov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi_boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari (X.Sabirov), tuman soliq inspeksiyasi (I.Sultanov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Tuman hokimligining axborot xizmati bo‘limi (S.Yo‘ldoshev), “Shovot istiqboli” gazetasi (M.Abdalova) hamda tuman hokimligi bosh yuriskonsulti (Z.Raximov) bilan hamkorlikda;

mazkur qarorni tuman hokimligining shovottuman.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirsin hamda “Shovot istiqboli” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin.

Shovot tumani Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (X.Sabirov) bilan birgalikda ushbu qarorning mazmun mohiyatini aholiga tushintirish ishlarini olib borsinlar.

8. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Shovot tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi G.Dosova zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

DAVLATOV MURADBEK SAPARBOYEVICH

Xalq deputatlari Shovot tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-139-12-177-K/25 -son
qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Shovot tumani mahalliy budjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori

№	Daromad turlari	Cheklangan miqdor
	JAMI	**150 687 138**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	4 858 650
2	Foyda solig‘i	10 012 820
3	Aylanmadan olinadigan soliq	10 593 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	36 519 300
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	986 000
	Aksiz solig‘i jami	16 708 000
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	0
	pivo	0
6	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	16 708 000
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	8 045 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	12 702 758
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	15 033 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	23 822 000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	149 000

12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 774 600
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	8 621 000
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	3 448 400
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
14	Davlat boji	2 748 330
15	Yig‘imlar	793 530
16	Jarimalar	1 389 150
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	552 000

Xalq deputatlari Shovot tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-139-12-177-K/25 -son
qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Shovot tumani mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	Xarajatlar miqdori, jami	**150 687 138**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	51 636 917
	shundan:	
	"Mening maktabim"	3 337 200
3	Madaniyat bo‘limi	8 167 899
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	5 302 421
5	Sport bo‘limi	7 193 717
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	0
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	4 828 321
8	Suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi	1 774 905
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	0
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	72 505
10	Hokimiyat	50 110 728
	shundan:	
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	25 626 928
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	2 495 261

	Zahira jamg‘armasi	1 817 966
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	1 181 303
	shundan:	0
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	31 011
	Axborot-kutubxona markazlari	1 150 292
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	20 418 422
13	Boshqa tashkilotlar	0